ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 1,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

MAMMADOVA SHAKAR,
XAMIDOV MANSUR
Ozarbayjon va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili 7

YAKUBOVA NILUFAR EGAMBERGANOVNA
O‘zak va qolip (vazn) nazariyasi arabiy o‘zlashmalarni
tahlil qilishning asosiy mezoni sifatida 12

SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH
Tilshunoslik fani taraqqiyotida applikativ modelning murakkab
sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni 17

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Арабская лингвистическая традиция VII–XVII вв.: формирование
интеллектуального стиля и инструментов сохранения языковой нормы 21

ALIMOVA ZARIFAXON VAXOBOVNA
MAMAROZIQOVA SUG‘DIYONA SHUXRATJON QIZI
Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida forsiy o‘rin-joy yasovchi affikslarining qo‘llanilishi 25

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA,
YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA
Mahmud Koshg‘ariyning «Devony lug‘oti-t-turk» asarida keltirilgan
maqollardagi so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlari 29

SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA
Ahmad Yassaviy ijodining ramziy tili va undagi raqamli tasavvuf 33

SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
Arab tilida enantiosemiya hodisasi: semantik tabiati va ilmiy talqinlar tahlili 36

PANJIEVA NASIBA NARMAXMATOVNA
SAIBNAZAROVA NAZOKAT
English proverbs with number components 39

ЛАТИПОВ АЗИЗ АКБАРАЛИЕВИЧ
Сопоставительная характеристика категории
фазовости в английском и узбекском языкознании 42

AMONOV MUXTORJON UMAROVICH
«Boburnoma» asaridagi arabcha o‘zlashmalarda antonimlik 45

ОРИФЗОДА МАДИНА КАМИЛОВНА,
ОРИФЗОДА БОНУ КАМИЛОВНА
Системное изучение словообразовательной омонимии
в ретроспективном и перспективном аспектах 48

SABIROV ASROR ABDULLAYEVICH
Nemis–o‘zbek siyosiy terminlarining semantik va stilistik xususiyatlari 52

IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI
O‘zbekistonda til siyosati va ingliz tilining rivoji 56

TURSUNOVA MARXABO RAXMONOVNA
Jojo Moyesning «To seni topgunimcha» romanida kognitiv dissonans fenomenining
psixologik va lingvistik talqini hamda uning tarjimashunoslikdagi ifodasi 60

ARZIMURODOVA E’ZOZA BERDIMUROD QIZI
Zamonaviy mobil aloqa terminlarida transliteratsiya strategiyalari: ingliz va o‘zbek tillari qiyosida 64

BOZOROVA SEVARA KAMOL QIZI
Savdo konsepti doirasida sinonimiya (o‘zbek va ingliz tillari misolida) 68

КАРИМОВА ГУЗАЛ ИХТИЯРОВНА
Лингвокультурологический аспект концепта и его изучение в разных языках 71

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
O‘tkir Rahmat she’riyatida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi haqida ayrim mulohazalar 76

МУНДАРИЖА

MUSTAFOEVA MAKSAD ASKAROVNA
The structural and linguistic analysis of anthroponyms in «Beowuf» and «Alpomish» folk epics 79

NOSIROVA DILNOZA RIZOKULOVNA
Semantic and pragmatic features of john green's novels in contemporary young adult literature 82

RAXIMOVA ZARINA UKTAMOVNA
O'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodasi va tarjimada ichki monolog hamda emotsional tasvir 87

RAXMATOVA GULNOZA ISOXONOVNA
O'zbek tilidagi so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarining ingliz tilidagisi bilan qiyosi 90

BERDIYEVA SITORA UTKEROVNA
G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida yumorning badiiy funksiyalarining lingvistik jihatlari 93

SHAMSITDINOVA MOXINABONU AKBAR QIZI
Yapon tilida omonimlardan foydalanishda nutqiy strategiyalar 98

ADABIYOTSHUNOSLIK

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Телба образининг бадиий талқини
(Эркин Аъзамнинг «Сув ёқалаб» ва «Танҳо қайиқ» киноқиссалари мисолида) 100

ASQAROVA ZULAYXO YANGIBOYEVNA
Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi ta'rixlarning badiiy-estetik qimmati 104

MAMADJONOVA SEVARA MAXAMADJON QIZI
Adabiyotshunoslikda dualizm tushunchasining nazariy va
metodologik asoslari (Agata Kristi poetikasi misolida) 109

RAHIMOVA SARVINOZ TOLIBOVNA
Usmon Azimning «Devorlari yiqilgan bog'» hamda «Yana sevgi haqida she'rlar»
asarlaridagi simulyakra va boshqa postmodern xususiyatlar ifodasi 112

СААКЯН РОЗА ЮРЬЕВНА
Поэтика полемического жанра в памфлетной публицистике
Даниэля Дефо и Жжонатана Свифта 115

SHAMSIYEVA SHOXISTAXON QUDRATULLAYEVNA
Gender rollarni aks ettiruvchi stereotiplar 119

НАСРИДИНОВА СИТОРА УТКИРОВНА
Мотив отсутствия и присутствия как средство создания
напряжения в рассказе Джека Ритчи «Отсутствие эмили» 125

BAFOYEVA ROXILA VALIJON QIZI
Amerika hamda o'zbek postmodern adabiyoti xususiyatlari 128

KHAKIMOVA NARGIZA KHAYRILLOYEVNA
Mythological origins of the epics "Arthuriana" and "Alpamysh" 131

TA'LIM

TILOVOVA GO'ZAL RUSTAMOVNA
Ta'lim jarayonida o'quv izohli lug'atlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati 135

YULDASHEVA DILAFRUZ
The role of teacher instruction in efl classrooms: a discourse-oriented analysis
of their importance in teaching young learners 138

Резюме. Статья посвящена анализу лингвокультурологических аспектов сказок, рассматриваемых как отражение национального мировосприятия и культурных ценностей. В работе исследуются языковые средства, символика и образы, через которые передаются культурные смыслы и ментальные установки народа. Особое внимание уделяется сопоставлению элементов сказочного дискурса в разных лингвокультурах.

Rezyume. Maqola ertaklarning lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, ular milliy dunyoqarash va madaniy qadriyatlarning aks etishi sifatida ko‘rib chiqiladi. Unda madaniy ma’nolar va xalqning mental qarashlarini ifodalovchi til vositalari, ramzlar va obrazlar o‘rganiladi. Shuningdek, turli lingvokulturalarda ertak diskursi elementlarini qiyosiy tahlil qilishga alohida e’tibor qaratiladi.

Resume. The article is devoted to the analysis of the linguocultural aspects of fairy tales, which are viewed as a reflection of national worldview and cultural values. It examines linguistic means, symbolism, and images through which cultural meanings and the mental attitudes of a people are conveyed. Special attention is paid to the comparative analysis of elements of fairy-tale discourse in different linguocultures.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘TKIR RAHMAT SHE’RIYATIDA SINONIM SO‘ZLARNING QO‘LLANISHI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Maxammatova Feruza Olimovna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti
mustaqil tadqiqotchisi

O‘zbek she’riyatida so‘z tanlovi, ma’no nozikliklari va badiiy ifoda vositalaridan unumli foydalanish har bir shoirning individual uslubini belgilaydigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sinonim so‘zlar badiiy matnda fikr takroriga yo‘l qo‘ymaslik, ma’noni uslubiy qirralarda ifodalash, hissiy ta’sirchanlikni oshirishni ta’minlashda alohida ahamiyatga ega. Shu ma’noda, sinonimiya hodisasini muayyan ijodkor tili misolida o‘rganish nafaqat uning poetik mahoratini, balki badiiy tafakkur doirasini ham ochib berishga xizmat qiladi.

O‘tkir Rahmat she’riyati zamonaviy o‘zbek lirikasida samimiy tuyg‘ular, tabiat manzaralari, ruhiy kechinmalar va falsafiy mushohadalar uyg‘unligi bilan e’tibor qozongan. Manbalarda shoir she’rlarining samimiylik, tashbeh va istioralarga boyligi, insonga xos quvonch va qayg‘u, orzu va armon, shukronalik va iztirob kabi holatlarni poetik ifoda etish xususiyati alohida ta’kidlangan. Shuningdek, uning «Shukrona», «Xayol ifori», «Dilchiroq», «Rayhon hidi», «O‘tli ruh» kabi to‘plamlari she’riy tafakkuri va poetik tilining shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Shoir poetik nutqida sinonim so‘zlardan foydalanish, avvalo, ma’noni kuchaytirish, ruhiy holatning eng nozik qirralarini farqlash, poetik tasvirni aniqlashtirish hamda misra ohangdorligini ta’minlash bilan xarakterlanadi. Bir qarashda bir-biriga yaqin bo‘lgan leksik birliklar she’r matnida turli ekspressiv-uslubiy vazifalarni bajaradi. Natijada sinonimlar shoirning estetik maqsadiga bo‘ysundirilgan holda, matnda ma’no rang-barangligi va badiiy ta’sirchanlikni yuzaga keltiradi.

O‘tkir Rahmat she’riyatiga xos muhim belgilardan biri so‘z tanlashdagi nozik did va ma’no ottenkalarini farqlay bilish mahoratidir. Shoir she’rlari o‘zining samimiyligi, go‘zal tashbeh va istioralarga boyligi,

ayniqsa Vatan va tabiat mutanosibligini obrazli ifoda etishi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan qaralganda, uning poetik nutqida ma'nodosh birliklar qo'llanishi tasodifiy emas, balki badiiy tafakkurning ichki qonuniyati sifatida namoyon bo'ladi.

O'tkir Rahmat poeziyasida sinonimiya ko'pincha ikki ko'rinishda kuzatiladi: birinchisi, tilda tayyor holda mavjud *lug'aviy sinonimlar*; ikkinchisi esa kontekst ta'sirida yaqinlashgan *kontekstual sinonimlardir*[1].

Shoir bu imkoniyatdan, asosan, his-tuyg'uni kuchaytirish, poetik ohangni mustahkamlash va obrazni ko'pqatlamli qilish maqsadida foydalanadi. Masalan, «Oy to'lgan oqshom» turkumidagi «Bir zamonlar» she'rida «dovul, bo'ronlar» birikmasi qayg'u ma'nosini oddiy xabar sifatida emas, balki kuchaytirilgan ruhiy holat sifatida ifodalaydi; xuddi shu matndagi «sarg'aymoq, so'lmoq»sinonimining qo'llanishi esa ichki kechinmaning lirik va musiqiy tusini oshiradi. Bu yerda ma'nodoshlik faqat lug'aviy yaqinlik emas, balki she'riy intonatsiyani kuchaytiruvchi uslubiy vositaga aylanadi.

Dengizga aylandim,zavq-u shavqqa esh,
Zamondan oldim so'ng ozroq ulguni.
Dovul, bo'ronlarim to'xtamadi hech,
O'rgatdim ko'plarga toshmoq ilmini.
Shoxlarimda sarxil mevalar bitdi,
Chetda qolgani yo'q *sarg'aymoq, so'lmoq.*
Umrimga o'zgacha ma'no baxsh etdi -
Ko'rkam bog'lar aro dataxtga do'nmoq. [2]

Shoir ijodida ma'nodosh qatorlar poetik tasvir ko'lamini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Xususan, ayni shu to'plamning «Yo'lovchi hikmati» she'riy parchalarida «azob» va «g'am» kabi yaqin ma'noli leksemaning yonma-yon kelishi tasvir miqyosini kengaytiradi, lirik kechinmani mahalliy holatdan umuminsoniy gradidatsion darajaga ko'taradi. Bunday qo'llanishda har bir so'z ikkinchisini takrorlamaydi, aksincha, ma'noni bosqichma-bosqich yoritadi. Shu bois O'tkir Rahmat poeziyasida sinonimlar «ortiqcha takror»ni emas, balki «ma'no chuqurlashuvi»ni yuzaga keltiradi, deb aytish mumkin.

Bu kun yuragimda ulg'ayar havas,
So'ndirib qo'ymasang umid shamini.
Yurganlar biladi, qaytganlar emas,
Bu yo'l *azobini,* bu yo'l *g'amini.*

Ayni shu she'rning keyingi bandlarida:
Ammo og'ir bu yo'l *qasosi, o'chi,*
Gohida ko'ngilga tutgani yolg'on.
Goh yarmiga yetmas oyoqlar kuchi,
Goh uchqun qanot ham *zo'riqqan, tolgan.*[3]

Bu bandda esa sinonimiya hissiy mazmunni kuchaytirishga xizmat qiladi. Unda «qasosi, o'chi» tarzidagi yaqin ma'noli leksik birliklar inson qalbida jo'sh urayotgan salbiy hissiy kechinmalarni bir nuqtaga jamlaydi. Bu qatorda har ikki birlik bir xil ma'noni aynan takrorlamaydi: «qasos»da yomon, nomaqbul ish, qilmish uchun javob qaytarish maqsadi, shunga qaratilgan niyat bo'lsa, «o'ch» - biror yomonlik uchun javob. [4]

Natijada ularning birgalikda qo'llanishi she'r ta'sirchanligini oshiradi, hissiy grodatsiyani ifodalaydi. Psixologik yondashuvga ko'ra, inson kayfiyatidagi tushkunlik, umidsizlik, hayotiy jarayonlarga bo'lgan ichonsizlik, mehnatining qadrsizlanishi insonni ruhan charchatadi, bu holatni ijodkor tasvirlab berishda «zo'riqqan, tolgan» sinonimik jamlanmasi orqali kitobxonga yetkazib bergan.

G'ayrating chirog'i so'nmay toabad,
Yashagin hamisha Ezgu tarafda.
Bu yo'lning so'nggida seni kutar Baxt,
Bu yo'lning so'nggida erish Sharafga! [5]

She'rning so'nggi bandida «Baxt», «Sharaf» leksemalari kontekstual sinonimiyani yuzaga keltirgan. Tashqi tomondan bir-biriga yaqin harakatlarni bildirsa-da, kontekstda ular qahramonni olg'a intilishga chorlaydi, hech qachon yengilmaslikka undaydi. Bu yerda shoir birgina harakatni qayta nomlash orqali psixologik tavsifni chuqurlashtiradi. Insonni faqat ezgu niyatda bo'lishiga, har doim yaxshilikka intilib yashashiga chorlaydi.

«Fasllar aylanar, tugamaydi she'r» to'plamida keltirilgan «Taqdirning in'omi» she'rida ham « joziba» va « jodu» leksemasi sinonimik qatorni yuzaga keltirmasa-da shoir misrada so'z o'yinini mahorat bilan ko'rsatadi:

Qanday bu *joziba,* bu qanday *jodu,*
Sehringga topinib, men yetolmayman.
Mag'ribu mashriqqa deyman yohu
Baribir qoshingdan hech ketolmayman.

«O'zbek tilining izohli lug'ati»da «joziba» leksemasining sinonimik qatorini quyidagicha beradi: yoqimlilik, dilbarlik, malohat, tortish kuchi. [687] «Jodu» leksemasiga: afsun, sehr, afsungar, sehrlovchi, sehrgar kabi leksemalar sinonim bo'lib kelishi izohlangan. Ko'rinib turibdiki, leksemalar jamlanmasidan «jodu» va «joziba» leksemalari sinonimik qator sifatida kesishmaydi. Ammo shoir bu so'zlarni «*tor-*

[1] Шамсиддинов Х. Ўзбек тилида сўларнинг функционал-семантик синонимлари: Филол. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 46 б.
[2] O'tkir Rahmat. Oy to'lgan oqshom. – Toshkent: Sharq, 2022. 122-b.
[3] O'tkir Rahmat. Oy to'lgan oqshom. – Toshkent: Sharq, 2022. 122-b.
[4] Vikilug'at https://uz.wiktionary.org
[5] O'tkir Rahmat. Oy to'lgan oqshom. – Toshkent: Sharq, 2022. – 125 b.

tish» semasi orqali birlashtirib, keyingi misrada *sehr* leksemasini keltirish bilan dalillaydi.

Aynan shu she'rning keyingi misrasida «noziksan», «go'zalsan» leksemalari, «she'r-u g'azal» juft so'zlari konteksda sinonimik ma'noni yuzaga keltirgan.

O'ychan xayollarning ichida yo'qman,
Bir kalom aylanar tilimda o'qday.
Noziksan, go'zalsan, borsan azaldan,
Men seni izlayman *she'r-u g'azaldan*…[1]

«Nozik», « go'zal» leksemalari to'g'ridan to'g'ri sinonimik qatorni yuzaga keltira olmaydi, ular anglatgan semalar bir- biridan farq qiladi. Nozik – ingichka, yengil; yumshoq, muloyim; mo'rt, bo'sh; nafislikni bildiradi,[2] go'zal – juda ham chiroyli, husndor, xushro'y, kishi ko'zini quvontiradigan, kishini maftun etadigan, zavqlantiradigan[3] tashqi ko'rinishni ifodalaydi. Ammo konteksda «go'zal» leksemasining *chiroyli* semasi, «nozik» leksemasining *nafis* semalarining birlashishi natijasida sinonimik ma'noni bir misraga joylanganini kuzatish mumkin. Band so'nggida kelgan «she'r-u g'azal» juft so'zlari ham umumiy lirikani ifodalashiga ko'ra sinonimik juftlikni hosil qilgan, deb aytish mumkin.

O'tkir Rahmat she'riyatida sinonim so'zlarning qo'llanishini kuzatar ekanmiz, ular bir nechta vazifani bajarishini ko'ramiz. Birinchidan, ular ma'noni noziklashtiradi va bir holatning turli ruhiy qirralarini ochadi. Ikkinchidan, misra musiqiyligi va poyetik ohangdorlikni ta'minlaydi. Uchinchidan, obrazlilikni kuchaytirib, she'rning estetik ta'sirini oshiradi. To'rtinchidan esa, lirik qahramonning ichki kechinmalari, axloqiy ideali va muallif bahosini bilvosita ifodalashga xizmat qiladi. Tanqidiy adabiyotlarda ham shoir she'rlarida samimiylik, toza ruhiyat va tabiiy ohang alohida qayd etilgani bejiz emas; aynan shu xususiyatlar sinonimlarning sun'iy emas, balki tabiiy va ichki ehtiyoj asosida qo'llanganini ko'rsatadi. Shu ma'noda, O'tkir Rahmat poetik tilida sinonimiya faqat leksik hodisa emas, balki badiiy tafakkurni shakllantiruvchi muhim uslubiy mexanizmdir. U she'r matnida his va fikrning o'zaro uyg'unligini ta'minlaydi, so'zning estetik qiymatini oshiradi hamda muallifning individual uslubini belgilaydi. Demak, shoir she'riyatida sinonim so'zlarning qo'llanishi uning poetik mahorati, til sezgisi va badiiy ifoda imkoniyatlarini yorqin namoyon etuvchi asosiy belgilardan biri sanaladi.

Xulosa shuki, O'tkir Rahmat she'riyatida sinonim so'zlar qo'llanishi shoirning poetik mahoratini namoyon etuvchi muhim leksik-uslubiy belgilardan biri hisoblanadi. Uning she'rlarida ma'nodosh birliklar oddiy leksik almashinuv vositasi sifatida emas, balki his-tuyg'uni noziklashtirish, fikrni ta'sirchan ifodalash, misra ohangdorligini kuchaytirish va obrazlilikni ta'minlashga xizmat qiluvchi badiiy unsur sifatida namoyon bo'ladi. O'tkir Rahmat ijodi haqidagi manbalarda ham shoir she'rlarining samimiylik, obrazlilik, tashbeh va istioralarga boyligi alohida ta'kidlangan bo'lib, bu hol uning poetik tilida ma'no yaqinligiga ega birliklardan o'rinli va maqsadli foydalanilganini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sinonim so'zlar shoir she'riyatida bir necha vazifani bajaradi: ular ma'noni qavatlaydi, ruhiy holatning turli ottenkalarini ochadi, poetik tasvir ko'lamini kengaytiradi va muallifning estetik munosabatini bilvosita ifodalaydi. Shu bois O'tkir Rahmat she'riyatida sinonimiya hodisasi faqat til birliklari o'rtasidagi ma'no yaqinligi emas, balki individual uslubni shakllantiruvchi va badiiy ta'sirchanlikni yuzaga keltiruvchi poetik mexanizm sifatida baholanishi lozim.

Demak, O'tkir Rahmat she'riyatini leksik-stilistik jihatdan o'rganishda sinonim so'zlarning qo'llanishini tahlil qilish shoirning badiiy tafakkuri, so'z tanlash madaniyati va poetik ifoda imkoniyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mazkur mavzuning o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi uchun dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Rezyume: Mazkur maqolada O'tkir Rahmat she'riyatida sinonim so'zlarning qo'llanish xususiyatlari, ularning poetik nutqdagi uslubiy vazifasi hamda badiiy ma'noni kuchaytirishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Резюме: В данной статье анализируются особенности использования синонимов в поэзии Уткира Рахмата, их стилистическая функция в поэтическом дискурсе, а также их роль в усилении художественного смысла.

Resume: This article analyzes the characteristics of synonym usage in the poetry of Utkir Rakhmat, their stylistic function within poetic discourse, and their role in enhancing artistic meaning.

[1] O'tkir Rahmat. Fasllar aylanar, tugamaydi she'r – Toshkent: Sharq, 2021. – B. 39.
[2] O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'.G'ulom, 2023. III. – B. 844.
[3] O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'.G'ulom, 2023. II. – B. 287.